

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Ijtimoiy - iqtisodiyot

Yo`nalish: Ijtimoiy ish

Fan: Umumiy sotsiologiya

REFERAT

Mavzu: Tolkatt Parsons va uning sosiologiyada tutgan o`rni

Bajardi: Jadikova Aziza

Tekshirdi: ass. Dusmanov Sh..

Samarqand

Tolkatt Parsons va uning sosiologiyada tutgan o'рни

1. T.Parsons sosiologik qarashlarining shakllanishi
2. Struktural-funksional ta'limot
3. Sosiologiyaning umumnazariy muammolari
4. Hozirgi zamon jamiyat tizimi haqida

Tolkatt Parsons (1902-1972) XX asr sosiologiyasining eng ko'zga ko'ringan yirik vakillaridan biri. Amerikalik bu sosiolog noyob iste'dod egasi edi. U o'ziga xos sintetik tafakkur ega bo'lib, tabiatshunoslik, iqtisod, sosiologiya fanlari sirlarini chuqur o'rgandi. U dastlabki mutaxassislik bo'yicha ilm olishni medisinani (Amxrest kolleji) o'rganishdan boshladi. U davrining mashxur ekonomisti Uilton Xomilton uning bo'lg'usi dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Uning ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Uning taqdiri murakkab kechdi. 1923 yil uning bitirishidan bir yil oldin uning prezidenti Aleksandr Mikldjon tomonidan T.Parsons haydaldi. Kollejda u yoqtirgan professorlardan hyech kim qolmadi.

U biologiya, falsafa, ayniqsa I.Kontning «Sof aqlning tanqidi» asarini chuqur o'rgandi. U Angliya adabiyoti kurslarida qatnashmoqchi edi. Aspiranturada o'qishni juda orzu qilardi, hatto medisina bo'ymcha ham shuhrat qozonmoqchi bo'ldi.

T.Parsons aspirantura uchun o'tilayotgan, ammo dasturi mukammal bo'lmagan sosiologiyaga qiziqdi. Bobosining yordamida London iqtisod maktabida o'qidi. Maktabda L.G.Xobxauza, R.Gani va X.Laskining qarashlari unga juda yoqib qoldi.

Ayniqsa sosial antropolog Bronislav Malinovskiy intellektual salohiyati unga juda katta ta'sir etdi. Amxerst kollejida iqtisod bo'yicha o'qituvchi

bo'lib ishladi, ko'p vaqt o'tmay u Maks Veber ta'siri juda kuchli bo'lgan Geydelberg shahriga yuborildi. Men, deb eslaydi T.Parsons o'zining «sosializm gazariya tuzilishi to'g'risida», «Intellectual avtobiografiya» asarida, birinchi marta Maks Veber haqida Amxerstdami yoki Londondami eshitganimni eslolmayman. Ammo Maks Veber asarlari menga katta ta'sir etdi. Uning «Protestant etikasi va kapitalizm ruxi» asarini ingliz tiliga tarjima qildim. Avval nomzodlik dissertasiyasi yoqlashni unchalik rejalashtirmagan edim. Edgar Zamin raxbaligida «Yangi nemis adabiyotida kapitalizm tushunchasi» mavzusida dissertasiya yozishga kirishdim. Men munozarani Karl Marks haqidagi mavzudan ilmiy tadqiqotimda nchalik taniqli bo'lmagan iqtisodchi Luylo Brentano qarashlariga to'xtalдим. Asosiy e'tiborini Verner Zombartning «Hozirgi zamon kapitalizm» nomli yirik asari va Maks Veber ta'limotiga qaratdim.

Ilmiy tadqiqotimda ikki bosh yo'nalish:

1. 1. Kapitalizmning sosioekonomik tizim sifatidagi tabiati;
2. 2. Maks Veber sosiologiyaning yirik nazariyotchisi;

Amxrestda o'qituvchilikning birinchi tili hamda dissertasiya ustida nutq bilan ishlash jarayonida iqtisod va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasini o'rganishga kirishish zarurligini sezdi.

Nomzodlik darajasini olganimdan so'ng fakultet dekani bo'lib kelgan Richard Merdiam bilan uchrashdim. U menga katta yordam berdi. Merdiam Geydelbergda olgan iqtisodiy bilimimni yanada chuqurlashtirishga turtki berdi va yordam qildi. Nemis «Dr.Phil» Amerika falsafasi doktoriga (ph.D) teng bo'lmasada men unga davogar bo'lmadim va erishgan natijamdan xursand bo'ldim. Merdiam meni Garvardga o'qituvchilikka tavsiya berdi va joylashishga yordam berdi. Garvardlik iqtisodchilar T.Parsons dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, tarixchi-iqtisodchi Edving Gey unga juda samimiy munosabatda bo'ldi va yordam qildi. Iqtisod nazariya

asta-sekin men uchun ichki nazariy matrisa bo'lib bordi. Bunga yana sosiologiya nazariyasi ham qo'shila bordi. Meni, ayniqsa, Alfreyd Marshall iqtisodiy nazariyasi juda qiziqirdi. Marshall o'sha davr «ortdoksal» yoki «neoklassik» iqtisodiy nazariyasi bo'yicha dunyoda juda mashhur edi.

Marshallning iqtisodiy sosiologiyasi, ya'ni iqtisod bilan sosiologiyani birga qo'shilishi Parsons uchun kelgusida shuhrat qozonishga va to'g'ri nazariy yo'l olishga imkon berdi.

Paretonning iqtisodiy nazariyasi ham yosh tadqiqotchi Parsonsga ham katta ta'sir etdi. Uning sosiologik nazariyasiga qiziqishi yanada kuchaydi. Shumxster, Paretolarning ham iqtisodiy, ham sosiologik nazariyalari Parsonsga katta qiziqish o'yg'otdi. Ular Marshallning iqtisod va sosiologiya sohasidagi ma'lum g'oyalarni farqini tushunishga katta yordam berdi.

Umuman M.Veberning hozirgi zamon kapitalizm haqidagi ta'limoti dissertasiyaning bosh mavzusi bo'lib, protestant askitizm etikasi va kapitalizm ruhi haqidagi konsepsiyasi Marshall-Pareto-Weber shakllangan ilmiy tizim «konsepsiyasi»ga olib keldi.

T.Parsons Emil Dyurgeymni ham o'rgandi. Ayniqsa, Emil Dyurkgeymni tushunish uchun esa uning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida» (1893) asari o'ziga xos kalit rolini o'ynadi.

T.Parsons Emil Dyurgeymni ham o'rgandi. Ayniqsa, Emil Dyurgeymni tushunish uchun esa uning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida» (1893) asari o'ziga xos kalit rolini o'ynadi. E.Dyurgeym qarashlari Veberning kapitalizm rivojlanishi va Marshallning erkin tadbirkorlik konsepsiyasi bilan bog'langanligini ko'rsatdi.

1937 yil T.Parsons tadqiqot natijasi sifatida «Sosial harakat tuzilishi» kitobini yozib tugalladi. Bu kitob turli mualliflarning hozirgi zamon sosio-ekonomik tartib, kapitalizm, erkin tadbirkorlik va boshqa nazariy tuzilmalarni tahlil qilish, sharhlash asosida vujudga kelgan edi.

Bunday konseptual sxemalarni o'sha davrdagi intellektual muhitda o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatiga ega edi.

1952-1957 yillarda Chikago shahrida Rol Grinker rahbarligida «Tizim nazariyasi» haqida doimiy ishlovchi konferensiya faoliyat ko'rsata boshladi. Bu o'quv dasturida kibernetik kuzatuv nafaqat tirik tizimda balki shunga o'xshash ko'p turlarda amalda qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi.

O'sha davrdagi yirik olimlardan bo'lgan Alfred Emerson organik Dunya tirik tizim bilan inson sosiomadaniyat dunyosi tizimi o'rtasida fundamental bog'liklik mavjudligiga Parsonsni ishontirdi. Bu o'ziga xos genning funksional ekvivalenti g'oyasi «simvol» edi. Boshqacha aytganda bu tadqiqot turlarning genetik konstitusiyasi va organizm muammosi hamda sosiomadaniy tizim o'rtasidagi o'zaro obyektiv bog'liklik borligini ko'rsatdi.

Marshall-Pareto-Veber-Emerson to'rt olim ta'limotlarining konvergentsiyasi (qo'shiluvchi) bo'lgan «sosial harakat tuzilishi» Parsonsga katta kasbiy va ilmiy shuhrat keltirdi. Bu konsepsiyada asosan g'arb jamiyatining hozirgi zamon holati haqida gap borardi.

T.Parsons g'arb jamiyatini kapitalizm yoki erkin tadbirkorlik sifatida ta'rifladi, siyosiy jihatdan esa demokratiya deb belgilash mumkin, dedi. Shu bilan birga XX asrda jamiyat inqiroz ahvolidagi ekanligini ham alohida ta'kidladi.

Parsonsning tadqiqotlarida birinchi socialistik davlat, fashistik harakatlar, ulug' iqtisodiy inqiroz (1929-1930) kabi ijtimoiy-siyosiy voqyealar ham muhim o'rin egalladi.

1930-1936 yillarda uning uchala qizi o'sayotganligi tufayli oila uchun muammo paydo bo'ldi. Kasb bo'yicha 9 yil oddiy o'qituvchi: birinchi 4 yil iqtisod fakultetida, so'nggi 5 yil Yangi tashkil qilingan «sosiologiya» fakultetida o'qituvchilik qildi. U o'z xotiralarida X.Berbon (iqtisod), P.A.Sorokin (sosiologiya) meni unchalik yoqtirishmas edi, deb yozadi.

Mening assistent darajasiga ko'tarilishimda shtatsiz professorlar E.F.Gey, E.B.Uelson, A.Xenderson katta rol o'ynaydi. 1936 yil Xenderson Garvard Universiteti rektori Konant oldiga meni ikkinchi muddatga assistentlik lavozimiga tayinlash haqidagi masalani qo'ydi. (albatta Sorokin bilan kelishilgan holda) va ikki yildan keyin professorlikda doimiy joy bo'ladi, deb va'da berdi. Ana shu shart bilan Garvard Universitetida ishlay boshladim, deb xotirlaydi Parsons.

Parsons intellektual maqsadda Taussig Shumpetter Gim bilan juda yaxshi aloqada bo'lgan. Xenderson juda og'ir tabiatli olib bo'lib, uncha muncha sosiologni tan olmasdi. Xenderson fan, ayniqsa, fan falsafasi va nazariyasi, fanning tabiati bobida katta bilimga ega edi.

Meni kitobni ham tanqidiy o'qidi va qimmatli fikrlar berdi. Mashhur shaxslar bilan o'trsang albatta Xenderson haqida gapirardi. Unga "qizim soqol" degan laqab berishgan edi. Uning "sosial sistema haqida"gi asari bosilib chiqdi. O'sha davrda olimlar o'rtasida quyidagi shior ustuvor edi «nashr ettir yoki xalok bo'lasan». Menga eng yaxshi asarni bosib chiqarishni maslaxat berishdi.

Sosiologiya bilan shug'ullanish T.Parsonsnı psixologiya va sosial antropologiyaga qarab yetakladi.

Parsons kasbni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, hozirgi zamon industrial jamiyati tabiatiga xos konseptual sxemani uyg'unlashtirishga harakat qildi. Uning o'qituvchilik faoliyatida quyidagi xulosa ochiq ko'zga tashlandi: «Olimlik kasbi hozirgi zamon jamiyatida ko'zga ko'rinarli, sharaflı unvon». Bu yerda, deb yozadi Parsons, - mafkuraga asoslangan «kapitalizm-sosializm» alternativasi haqida umuman eslatmaydi. Ikki mafkuraviy pozitsiya: aql-idrokka asoslangan «shaxsiy manfaati ko'zda tutuvchi kapitalizm aqidasi hamda jamoa manfaatini ko'zlovchi socialistik aqidasi asosidagi utilitar fikr, ya'ni individ o'zining ehtiyojini qondrish ustivorligiga,

sosialistik aqidasi esa kollektiv manfaati (Gobbs va Dj.Ostinadan boshlangan) ustivorligiga asoslanib, ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondiradi, degan xulosa mavjud edi”. Rasionallik tabiati muammosini o’rganish, shuningdek, rasionallikka asoslangan bilim bilan harakat qilishga e’tiborni qaratdim.

Shuning uchun deb yozadi Parsons, - “oxirgi kursda biologiyaga emas, ijtimoiy fanga borishga qat’iy qaror qildim. Mening jamiyatshunoslikka kirish ishim (dastlab tor ma’noda yo’l izlayotganimda o’qituvchi va ma’muriyatli bo’lib qoldim). Talabalik bilimda otam Ogayo shtatida «Marietta College» prezidenti edi. U o’zining karyerasini kongresionallik ruhoniysi va o’sha davrdagi ta’sirli «Sosial yevagelist” harakatiga qo’shilishidan boshladi. Endi bilsak bu harakat AQShda sosiologiya tug’ilishida ko’p ish qilgan ekan”.

Odam harakati birinchi navbatda individual, shu bilan birga ijtimoiy xarakteri hamda norasional va irrasional omillarni nazariy bilish mumkinligini ham istison etmaydi. Parsons tadqiqotlarida Freyd va norasionallikning yaroqliligi to’g’risidagi, jumladan medisina rasionallikni iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o’rni, umuman har qanday ijtimoiy harakat tahlilida dinning o’rni, protestant etikasining ijobiy tomonlari masalalari ham keng o’rin oldi. Bu uch soha (dinni qo’shganda to’rtinchi) ilmiy faoliyatimda “rasionallik muammosi” sohasidagi ijodiy qiziqish strukturasida deyarli to’la egallab oldi, deb qayd qiladi.

Siyosiy – iqtisodiy majmuadan sosiopsixologik tomon keskin burilish, ya’ni norasionallik muammosini Freyd pozitsiyasida ko’rish muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda “kognitiv rasionallik”ning xususan medisina ilmi komponentining madaniy asosi sifatida yetakchi mavzuga aylanishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Harakatning umumiy tizimida nafaqat o'zaro bog'liqlik, shu bilan birga o'zaro bir-biriga kirishish va ta'sir mavjud madaniyat tizimining ma'lum komponentlari bir vaqtning o'zida sosial va shaxs tizimining komponentlari bo'lib kolmoqda edi¹.

T.Parsons 1946 yil Venada psixoanalitik o'qish va seminarda qatnashdi. Urush davrida Garvard Universiteti professorligidan harbiy xizmatga ketdi. U yerda u "Yevropa va Sharq - Osiyo" jamiyati haqida ma'ruza o'qidi.

Urush so'nggida xorijiy iqtisod Boshqarmasida maslahatchi bo'lib ishladi.

1944 yil Garvard Universiteti sosiologiya fakulteti boshlig'i qilib tayinlandi. U fakultetni butunlay qayta tuzdi. 1945 yilda fakultetda ikki professorlik joyi ochildi. Birinchisi K.Romans ilgari flot xizmatiga ketgunga qadar shu yerda ishlagan, ikinchisi Somyuel Stauffer harbiy idorada informasiya va ta'lim bo'yicha bo'lim rahbari bo'lib ishlagan.

1946 yil kuzida Universitetda sosial munosabatlar laboratoriyasini boshlg'i bo'lib ishlay boshladi. Fakultet sosial antropologiya, sosial va klinik psixologiyani o'z ichiga olardi. Fakultet rhbari sifatida 1956 yilga qadar ishladi. Parsons 1942 yil Sharq sosiolog jamiyati Prezidenti 1949 yilda esa Amerika sosiologik assosiasiyasi prezidenti bo'lib ishladi. Parsons rahbarligida assosiyada katta tashkiliy ishlar qilindi. Eng avvalo a'zolari ko'paydi va uning faoliyati turi ham kengaydi. Shtatlar strukturasi o'zgardi. Ma'muriyatchi xodimlar olindi. 1953-1954 yillrda Kembridj Universitetining shtatsiz professori bo'lib ishladi.

Bir necha vaqt tanaffusdan keyin yana Assosiyada kasb bo'yicha qo'mita rahbari, 5 yil kotib, «The Amerikan Sociologish» jurnali bosh redaktori bo'lib ishladi.

¹ История социологии в Западной Европе и США. Москва, 1999 г.

T.Parsons 1937-1951 yillarda ko'p kitoblar yozdi.

Uning ilmiy va jamoatchilik faoliyatida o'qitish va tadqiqotlik funksiyasini qo'shib olib borishning ahamiyati katta bo'ldi. Ikki katta kitobi "Sosial sistema ijtimoiy tizim" va "Sosial harakat strukturasi" (1951) yozib tugallandi. Bu ilmiy nazariy izlanishlarining ma'lum etapining tugallanishi hamda uni yanada teranroq va kengroq tadqiq etishni davom ettirishga fundamental asos bo'ldi.

Parsons Shilz bilan sosial sistema darajasidan umuman sosial harakat darajasigacha bo'lgan o'zgaruvchan namuna sxemasiga muvofiqlik masalasi munozarasi bo'ldi.

1953 yilda R.Beylz Shilz bilan hamkorlikda «Harakat nazariyasi bo'yicha ishchi daftari»ni yaratdi. Bunda eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan «to'rt funksiyali paradigma» g'oyasini yaratish bo'ldi. Beylzning "O'zaro ta'sir jarayonining tahlil" kitobdagi to'rt o'zgaruvchan namuna Parsons to'g'ri yo'l olishga muhim manba bo'ldi.

"Biz, deb yozadi Parsons – shunday xulosaga keldik: umuman harakat tizimini jarayon va struktura kategoriyalari orqaligina oxirigacha tahlil qilish mumkin ekan. To'rt funksiyali muammo: "adaptasiya, "sistemali (alohida bo'lmagan, maqsadga erishish", "integrasiya", sosiomadaniyatli o'zaro ta'sir jarayoni va unda ro'y beradigan hayajonni boshqarish, Parsonsni 1953-1954 akademik yilida Kembridj Universitetida "sosial nazariya" mutaxassisligi bo'yicha shtatsiz professorlikka taklif etildi. U yerga meni Alfred Marshall o'quviga (uning xotirasiga bag'ishlangan) taklif etdi, deb yozadi.

Sosiologiyaning mumtoz vakillari:

- 1) 1) Ijtimoiy dunyoni tizim nuqtai-nazaridan qaradilar. Tizim esa ehtiyoj va talabaga ega bo'lib, ularni qondirish orqali tizimni yashashni ta'minlash mumkin.

- 2) 2) Tizimning norma lyoki nonormal yashashida muvozanat va gomeostatizm ahamiyati katta.
- 3) 3) Tizim qismlardan, qismlar o'z navbatida butunni saqlashda roli kattadir. Demak, butun va qism bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

T.Parsons "Sosial harakat strukturasi" (1937) asarida utilitarizm, pozitivizm, idealizmning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qildi. Bu uch yo'nalishdagi nazariya va nazariyalashtirishning sosiologiyada tutgan o'rnini alohida ta'kidlaydi. T.Parsons harakat nazariyasini qurishda «analitik realizm»ni o'z o'rniga qo'yishni tavsiya etdi. Tushuncha tizimni ishlab chiqish fikr muloxazalar tizimiga nisbatan birinchiligini ko'rsatdi. Nazariyada tushunchalar hukmdor qatoriga kirmasligi kerakligi, avvalo bu analitik tizimga daxldorligi bayon etiladi.

T.Parsons dunyo tizimdan iboratligini alohida ta'kidlaydi. U odamlar hamma vaqt o'zlarini rasional tutadilarmi? Xaqiqatdan ham ular erkin va ma'lum qoidalarga itoat qilmaydimi? Boshqa tizimlar bilan raqobat qilayotgan sharoitda boshqarib bo'lmaydigan qanday tartib bo'ladi? Sosiologiya bu savollarga javob berishi kerak, deydi.

Utilitarizmning ma'lum tomonlari yaxshi fikrlardan: odamlarni ma'lum maqsadlarni ko'zlash (foydali tomonlarni), o'zlarini harakatlarida bir-birini istisno qiluvchi holatlar bo'lganda o'zini tanlovini amalga oshirilishini xam alohida ta'kidlaydi.

Pozitivlarni sosial dunyoni fizik hodisalardagi sabab-oqibat aloqasi nuqtai-nazari va unda inson axlining murakkab simvoli funksiyasini inkor qilganligini ham tanqid qildi. Ijtimoiy borliqni fizik parametrdan qarash mumkin emasligini xam alohida ta'kidlaydi.

Idealizm «Ideya» nuqtai-nazardan foydaligi ko'rsatilganligi, ammo «ideya» ijtimoiy hayet obrazidan ajralganligini tanqid qildi. Vaholanki, deydi

u, ijtimoiy hayotni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. T.Parsonsha «Valyutaristik harakat nazariyasi» quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi.

1. «Aktyor»-alohida shaxs.
2. «Aktyor» qandaydir maqsadni ko'zlaydi.
3. «Aktyor»- o'z maqsadiga erishish uchun alternativ vositalarga ega.
4. «Aktyor»- turli vaziyatli sharoitlarga to'qnash kelishi (biologik tabiati va nasllik, turli tashki ekologik bosim va hk.)
5. «Aktyor»- ma'lum qadriyat, norma va boshqa g'oyalarga tayanadi, ya'ni, bu idealar nimani maqsad qilgani va unga qanday erishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib harakat «aktyor»ni o'z faoliyatini — subyektiv hal qilishi, maqsadga erishishida, nisbatan vositachi sifatida qaraladi.

Bu yerda harakat g'oya va sharoit bosimi asosida bajariladi².

Funksiya tahlil ehtiyoj tushunchasini taqozo etadi. Ijtimoiy integrasiya «yagona» tizim sifatida ko'p «aktyor»larni amal qilishi, yaxshi integrasiya bulishi esa boshqa hammasiga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Parsons: Harakat tushunchasida yana harakat tizimining organik xossasini ko'rsatadi, u 1945 yil bu taxlil qanday shakl olishi kerakligi haqida to'xtalib yozadi: «Sosial tizim strukturasini bevosita «aktyor»-vaziyat qo'lidan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu ko'p aktyorlarning o'zaro ta'sirida vujudga keladigan shunday murakkab xosilasi bo'lib, funksional tahlil qilishni talab etadi, deydi.

Tolkatt Parsons tomonidan rivojlantirilgan evolyusion nazariyasi zamonamizdagi eng ta'sirchan nazariyalardan biri xisoblanadi. U ijtimoiy evolyusiyani biologik evolyusiyaning kengayib borishi deb xisoblashni taklif kiladi, xolbuki amaliy jihatdan qaraganda, bu ikki evolyusiyaning har ikkala tipini birga qo'shib evolyusion universallar deb ataladigan atamalar tarzida

² Т.Парсонс. Система современных обществ. Москва 1999 г.

tushunish mumkin, ya'ni bunda tarakkiyotning shunday tiplari anglashiladiki, ular bir necha hollarda bir-biriga bog'lik, bo'lmagan sharoitda mavjud bo'lishi aniqlanadi hamda o'zining hayotiylik darajasini ancha oshirib boradi. Tabiat olamida ko'z evolyusion universalga bir misol hisoblanadi. U jonli tabiatning qandaydir alohida ajratib qo'yilgan burchagida tasodifiy tarzda shunchaki paydo bo'lmay, balki bir necha turlarda bir-biriga bog'liq, bo'lmagan rivojlanib borgan. Ko'rmaydigan turlarga nisbatan olganda ko'rish qobiliyati atrof-muhitdan muvofiq, ravishda qodir bo'ladigan reaksiyalar spektrini beqiyos darajada oshirish imkonini beradi va shuning uchun ham g'oyat ulkan adaptasion qiymatga ega bo'ladi. Biologik evolyusiyaning barcha oliy bosqichlarida ko'rish qobiliyati barcha hayvonlar uchun zaruriy bir belgiga aylanib boradi.

«Har qanday insoniy madaniyatda, deb ta'kidlaydi Parsons, kommunikasiya asosiy ahamiyatda kasb etadi».

Parsonsning nuqtai nazariga muvofiq, ijtimoiy evolyusiyaning ijtimoiy institutlar tabaqalanishini tezlashtiruvchi bir jarayon sifatida tushunish ham mumkin, chunki jamiyat oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlanib boradi. Jamiyatlarning dastlabki tiplari juda past darajada tabaqalashtirilgan bo'lib, ular uchun Parsons «Konstruktiv simvolizm» deb atagan xususiyat xarakterlidir. Mazkur holatda gap ijtimoiy hayotning amalda barcha jabhalariga singib borayotgan, asosan diniy xarakterda bo'lgan timsollar (simvol) to'plami mavjudligi to'g'risida bormoqda. Ijtimoiy evolyusiyaning eng quyi bosqichda bo'lgan madaniyatni misol tariqasida keltirgan Parsons (xuddi Dyurkgeym singari) Avstraliya oborijenlari qabilasini qarab chiqdi. Ushbu jamiyatlar butunlay qarindosh-urug'chilik munosabatlariga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, ular, o'z navbatida, diniy qarashlarni ifoda etadi, shuningdek, ular xo'jalik faoliyati orqali bir-biriga bog'liq, bo'ladi. Mazkur jamiyatlarda individlarning shaxsiy mulklari juda oz miqdorda bulgan, qabila

Daxiylarining mulki institut shaklida qandaydir farqi shaklda mavjud bulmagan, chunki, yashash uchun zarur bo'lgan ne'matlarni ovchilikdan va yig'uvchi-terimchilikdan topganlar³.

Evolyusiyaning shundan keyingi bosqichi - bu «rivojlangan qadimgi jamiyat» darajasidir. Ushbu tipda etalitar munosabatlar o'rniga stratifikasiya tizimi keladi, bunda jamiyatning sinfiy bo'linishi ham mavjud bo'ladi. Qadimgi rivojlangan jamiyatlarda alohida ishlab chiqarish tizimi vujudga kelib, u chorvachilikka yoki dehqonchilikka, shuningdek, doimo yashash joyi o'troqlikka asoslangan bo'ladi. Din ijtimoiy hayotning boshqa jabhaalaridan ajralib chiqa boshlaydi hamda diniy rahbarlik maxsus ijtimoiy guruxlar — ruhoniylar yoxud koinlar qo'liga o'tadi.

Mana shunday shkala bo'yicha harakat qilib borar ekanmiz, Parsons «oraliq, jamiyatlar» deb atagan jamiyatlarga duch kelimiz. Ushu bu termin bilan kupchilik mualliflar ma'rifatli jamiyat deb ataydigan jamiyatlarni yoki Qadimgi Misr, Rim va Xitoy singari an'anaviy davlatlarni ataydi. Bunday jamiyatlar bir-birlari bilan yozuv va savodxonlik vujudga kelgani tufayli o'zaro aloqada bo'lganlar. Turli siyosiy, iktisodiy va oilaviy munosabatlar shakllana borgan. Mana shularning xar birining paydo bo'lishi deb ta'kidlaydi Parsons, jamiyatning o'z tarkibiga ko'prok kishilar ommasini jalb etish imkoniyatlarini ko'p marta oshirib yuboradi.

Sanoatlashgan jamiyatlar Parsons evolyusion sxemasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Ular oraliq tipdagi jamiyatlarga qaraganda g'oyat ko'proq darajada tabaqalashtirilgan bo'ladi. Ulardagi siyosiy va iqtisodiy tizimlar bir-biridan, shuningdek, qonun chiqaruvchi tizimdan va dindan qat'iy ravishda ajratib qo'yilgan. Ommaviy demokratiyaning paydo bo'lishi butun aholini siyosiy jarayonida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

³ Т.Парсонс. Функциональная теория изменения. Москва 1994 г.

Sanoatlashgan jamiyat paydo bo'lgandan so'ng ijtimoiy tuzumlarning qadimgi tiplarining deyarli batamom yo'qolib ketishiga olib keldi.

T.Parsons yuqorida qayd qilinganidek, sosiologiya sohasida ko'pgina nazariya va konsepsiyalar yaratdi. Shulardan yana biri inson harakati ya'ni hatti harakat bilan bog'liq, (tizim) muayyan tizim bo'lib, uni o'zini-o'zi uyushtiruvchi tizim deb ataydi va uni quyidagi regulativ xususiyatlarini simvollik mexanizmi mavjudligi (til, qadriyatlar va x.k) normativlik, (ya'ni individual harakatning umum tomondan norma va qadriyatlarga bog'liqligi) va vamotaristik (o'ganadigan muhit sharoitida ma'lum darajada irrasionallik va mustaqillik shu bilan birga subyektiv ammo uning ma'lum vaziyatga bog'liqligi) Parsons ana shuning asosida abstrakt formallashgan harakat tizimini modelini yaratdi.

O'z ichiga oluvchi tuzilmachalar:

(madaniy, sosial, shaxsiy va organikli), o'zaro almashish munosabatlarda bo'lishi.

Foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar.

- 1.T.Parsons. Funktsionalnaya teoriya izmeneniya. Moskva 1994 g.
- 2.T.Parsons. Sistema sovremennых обществ. Moskva 1999 g.
- 3.Sosiologiya segodnya. Problemy i perspektivy Amerikanskoy sosiologii. Moskva, 1965 g.
- 4.Istoriya sosiologii v Zapadnoy Yevrope i SShA. Moskva, 1999 g.
- 5.E.Giddens. Sosiologiya. Moskva 1999 g.
6. Amerikanskaya sosiologicheskaya mysl. Moskva, 1996 g.

TEST SAVOLLARI

1. Sotsiologiya atamasi va fani qanday ma'noni anglatadi?

- A) nemischa so'z bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilish va kuzatishga asoslangan fan
- V) lotincha so'z bo'lib, jamiyat haqidagi fan
- S) frantsuzcha so'z bo'lib, jamiyat sotsial faktlarini empirik tadqiq qilish haqidagi fan.
- D) ispancha so'z bo'lib, "pozitiv fan" degan ma'noni bildiradi.
- E) arabcha so'z bo'lib, ijtimoiy fan degan ma'noni bildiradi.

2. Sotsiologiya atamasi fanga kim tomonidan olib kirilgan?

- A) Frantsuz sotsial- utopisti Sen-Simon.
- V) AQSH sotsiologi Lester Uord.
- S) Ingliz sotsiologi va psixologi Gerbert Spenser.
- D) Frantsuz faylasufi Ogyust Kont.
- E) Nemis sotsiologi Maks Veber.

3. Sotsiologiyaning tadqiqot predmeti va yo'nalishlarini aniqlang.

- A) umumiy sotsiologiya, maxsus sotsiologiya.
- V) nazariy sotsiologiya, empirik sotsiologiya.
- S) "sof" sotsiologiya, "amaliy" sotsiologiya.
- D) faqat A va V.
- E) A, V, S.

4. Sotsiologiyaning asosiy kategoriyalari qaysilar?

- A) anketa, intervyu, kuzatish, pedagogik eksperiment.
- V) hujjat, so'rov, test, sotsiologik tadqiqotlar.
- S) davlat, siyosat, siyosiy hokimiyat, iqtisod, ijtimoiy soha, madaniyat- ma'naviyat, demokratiya
- D) faqat A va V.
- E) A, V, S.

5. Sotsiologik tadqiqotlar asosan qanday ustivor printsipga asoslanadi?

- A) umuminsoniy qadriyatlar printsipiga.
- V) partiyaviylik printsipiga.
- S) mafkuraviy printsiplarga.
- D) sinfiy qadriyatlar printsipiga.
- E) demokratik printsiplarga.

6. Sotsiologiyada fanlar yo'nalishi va amaliyotiga ko'ra qanday tartibda bo'linadi ?

- A) ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlar.
- V) akademik, tarmoq va oliy o'quv yurtlari fanlari.
- S) fundamental va amaliy fanlar.
- D) ilmiy-texnik, sotsial-iqtisodiy, gumanitar fanlar.
- E) tibbiyot fanlari, gumanitar fanlar.

7. Hamfikrlilik, kooperatsiya, ziddiyatlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, inqiroz, kamsitish, tengsizlik qaysi munosabat turlariga tegishli?

- A) moddiy munosabat turlariga.
- V) mafkuraviy munosabat turlariga.

- S) ijtimoiy munosabat turlariga.
- D) A,V,S.
- E) faqat A va S.

8. Madaniyat sotsiologiyasida madaniyatning 3 asosiy shaklini aniqlang.

- A) moddiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, ma'naviy madaniyat.
- V) yoshlar madaniyati, huquqiy madaniyat, ijtimoiy madaniyat.
- S) an'anaviy madaniyat, yuqori tabaqa siyosiy madaniyati, fuqarolik madaniyati.
- D) elitar madaniyat, halk madaniyati, ommaviy madaniyat.
- E) faqat V va S.

9. Sotsiologiyaga oid "Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida" degan asarning muallifi kim?

- A) E.Dyurkgeym.
- V) O.Kont.
- S) M.Veber.
- D) G.Zimmel.
- E) G.Spenser.

10. Maks Veber sotsiologiyaning predmeti deganda nimani ko'rsatgan?

- A) pozitiv fanni.
- V) ijtimoiy hulqni.
- S) ijtimoiy ma'lumotlarni.
- D) xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasini.
- E) ijtimoiy munosabatlarning bir butunligini.

11. Respondent kim?

- A) so'rov o'tkazuvchi kishi.
- V) sotsiolog.
- S) so'rov savollariga javob beruvchi kishi.
- D) so'rovda qatnashmasdan uni bevosita chetdan kuzatuvchi kishi.
- E) jurnalist.

12. Sotsiologiyadagi klassik yo'nalishning asoschilarini ko'rsating.

- A) Kont, Veber, Dyurkgeym.
- V) Veber, Spenser, Kont.
- S) Zimmel, Kont, Dyurkgeym.
- D) Marks, Engels, Lenin.
- E) Dyurkgeym, Kont, Spenser.

13. Siyosiy- sotsial institutlarni alohida ajratib ko'rsating.

- A) banklar, davlat, mulk, oila
- V) partiya, davlat, kasaba uyushmalari
- S) davlat, kasaba uyushmalari, biznes, oila
- D) mulk, ayirboshlash, davlat, din
- E) ta'lim, din, madaniyat, oila.

14. Sotsiologiyadagi noklassik yo'nalishining asosiy vakillari kim?

- A) Veber va Zimmel;
- V) Kont va Dyurkgeym;
- S) Spenser va Dyurkgeym;
- D) Marks va Engels;
- E) Blau va Bell.

15. Muxim sotsial institut bo'lgan ta'lim qanday asosiy vazifani bajaradi?

- A) jamiyat a'zolarini qayta etishtirish
- V) boshqarish va nazorat
- S) shaxsni ijtimoiylashtirish

- D) taqsimot va tartibot
- E) e'tiqodni shakllantirish.

16. Aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda sotsiologiyaning qaysi funktsiyasi ko'prok namoyon bo'ladi?

- A) gumanistik;
- V) bilish;
- S) amaliy;
- D) mafkuraviy;
- E) sotsial rejalashtirish.

17. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaning qaysi vazifasi ko'prok ahamiyat kasb etadi?

- A) xo'jalik, tarbiyaviy, iqtisodiy
- V) avlodlarni etishtirish, regulativ (tartibga solish), iqtisodiy
- S) xo'jalik, bo'sh vaqtdan unumli foydalanish
- D) iqtisodiy, xo'jalik - maishiy, avlodlarni etishtirish
- E) faqat A va S

18. Jahonda birinchi sotsiologiya kafedrası va fakulteti qachon va qaerda ochilgan?

- A) 1890 yil Frantsiyada
- V) 1892 yil CHikago universitetida (AQSH)
- S) 1895 yil London universitetida
- D) 1910 yil Berlin universitetida
- E) 1920 yil Petrograd universitetida

19. O'rta Osiyo mutafakkirlaridan kimni o'z davrining etnosotsiologi deb atashgan?

- A) Abu Nasr Forobiy.
- V) Zahiriddin Muhammad Boburni
- S) Amir Temurni
- D) Abu Rayhon Beruniyni
- E) Mirzo Ulug'bekni

20. Sport sotsiologiyasi sotsiologiyaning qaysi tarkibiy qismiga tegishli?

- A) ijtimoiy tizimlar sotsiologiyasiga
- V) ijtimoiy faoliyat sotsiologiyasiga
- S) mikrosotsiologiyaga
- D) makrosotsiologiyaga
- E) to'g'ri javob yo'q

21. Bixeviorizm namoyondalari sotsiologiya, ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lmog'i lozim deb hisoblaydilar?

- A) shaxsning ijtimoiy rolini oshirishdan.
- V) mehnat va boshqarish munosabatlarini takomillashtirishdan
- S) jamiyat va shaxs munosabatlarini uyg'unlashtirishdan
- D) guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishdan
- E) inson hulqini boshqarishdan

22. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi qachondan amalga kiritilgan?

- A) 1994 yil 5 martdan
- V) 1994 yil 1 apreldan
- S) 1995 yil 1 apreldan
- D) 1995 yil 21 dekabrda
- E) 1996 yil 1 apreldan

23. Qadimgi Hindistonda jamiyat qanday ijtimoiy tabaqalarga bo'lingan?

- A) braxmanlar, savdogarlar, plebeylar, dehqonlar
- V) patritsiylar, braxmanlar, shudralar, mulkdorlar
- S) braxmanlar, harbiylar, boshqaruvchilar, faylasuflar
- D) braxmanlar, kshatriylar, vayshlar, shudralar
- E) braxmanlar, patritsiylar, plebeylar, qullar

24. Egzogamiya nima?

- A) ko'p nikohlilik
- V) faqat o'z guruhi doirasida nikohlanish
- S) bir nikohlilik
- D) o'z urug'idan tashqarida nikohlanish
- E) nikohdan tashqaridagi oila

25. Iqtisodiy-sotsial institutlarni alohida ajratib ko'rsating

- A) davlat, banklar, oila, ta'lim
- V) ta'lim, din, mulk, davlat
- S) kasaba uyushmalari, partiya, din, biznes
- D) banklar, kasaba uyushmalari, din, madaniyat
- E) mulk, ayirboshlash, banklar, turli xo'jalik birlashmalari

26. Mashhur Avstriya olimi Z.Freyd ta'limoti asosida qanday g'oya yotadi?

- A) sotsial munosabatlar haqidagi.
- V) ruhiy hatti-harakat haqidagi.
- S) sotsial instinktlar haqidagi.
- D) faqat V va S.
- E) A,V,S.

27. Quyida shaxsga berilgan ta'rifning qaysi biri mukammal hisoblanadi?

- A) shaxs mavjud jamiyatning muhim xususiyatlarini ifodalovchi har bir odam.
- V) shaxs tabiatdan yuqori turuvchi sotsial mavjudot.
- S) shaxs alohida yarq etgan individuallik.
- D) shaxs tarixni harakatga keltiruvchi kuch.
- E) shaxs sotsial mavjudot, sotsial hayotning ongli sub'ekti bo'lgan har bir inson.

28. Poliginiya nima?

- A) ko'p xotinlilik.
- V) yakka nikohga asoslangan oila.
- S) ko'p erlilik.
- D) faqat o'z urug'i ichida nikohlanish.
- E) o'z urug'idan tashqarida nikohlanish.

29. Sotsial-demografik guruh nima?

- A) ishchilar, yoshlar, hukumat apparati xodimlari.
- V) yoshlar, xotin-qizlar, erkaklar, keksalar.
- S) shahar va qishloq aholisi, malakali ishchilar, yoshlar.
- D) ijarachilar, xotin-qizlar, ilmiy-texnik xodimlar.
- E) dehqonlar, mulkdorlar, muxandis-texnik xodimlar.

30. Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish tizimini kim yaratgan?

- A) E.Meyo.
- V) A.Maslou.

- S) F.Teylor.
- D) U.Tomas.
- E) D.Makgregor.

YOSHLARNING SOTSIALIZATSIYASI VA ULARNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-SIYOSIY, HUQUQIY ASOSLARI.

Ijtimoiylashuv deganda – individning sotsiumga yashashida hamroh bo`ladigan ijtimoiy hayotning shart-sharoitlarining ta'sir etish jarayoni tushuniladi. Hayot faoliyatining har qanday jarayonida ma'lum sotsial tajriba, faoliyat shakllari, me'yorlari, namunalari, qadriyatlariga ega bo`ladi va ana shular sotsializatsiya deb atala boshladi. Ijtimoiylashuv tushunchasiga sotsiologlardan E. Dyurkgeym, T. Parsons, G. Tard, H. Smelzerlar nazariy jihatdan ifodalab berganlar. Ular ijtimoiylashuv avloddan avlodga o'tishdagi madaniy transformatsiyadir,deb ta'kidlaydi.

Yoshlarning ijtimoiylashuviga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko`rsatadi: ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, tengdoshlar guruhi ta'sirining oshishi, yoshlar ijtimoiy hayotidagi bo`sh vaqt rolining o`shishi, yoshlar submadaniyati, ijtimoiy dinamikaning o`shishi, ijtimoiylashuvda an'anaviy institutlar rolining saqlanayotganligi va innovatsion institutlarning paydo bo`lishi, bolalik va yoshlik davrining uzayishi va yoshlar davrining davomiyligi. O`sib keluvchi yosh avlodning ijtimoiylashuviga oila, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, Oliy o'quv yurtlari va boshqa tuzilmalar ta'sir ko`rsatadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarining o`zlashtirish orqali sodir bo`ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi)ga aytiladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining 2 fazasi mavjud:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashish). Bunda individning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptasiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi.

Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvida o`z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o`ynaydi.

2. Sotsial interiorizatsiya, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, bal'ki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko`pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi qa'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o`zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologic xususiyatlar hisobga olinmaydi

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o`zi va ham ijtimoiy hayotining, hamda sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlashishning obyekti va sub'ektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat ko`rsatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan normalar va ularni ishlatish usullarini o`zlashtirgan bo`lishi kerak.

Yaqin o`tmishda yoshlar muammosi jahon miqyosidagi muammo, deb muhim xulosaga kelindi. Ular turli kishilarda, tashkilotlarda, millatlarda, davlatlarda mavjud bo`lgan resurslarni birgalikda qo`llashni kordinatsiyalashtirish bilangina hal etilishi mumkin. Prezidentimiz I.Karimov o`z ma'ruzalarida ta'kidlaganidek, mamlakatimizda yoshlar deyilganda 16-30 yoshda bo`lgan shaxslar tushuniladi.

Yoshlarni ijtimoiy jihatdan faol bo`lishi hozirgi kunning eng muhim masalasidir. Hozirgi kunda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, bu albatta mamlakatimizda sodir bo`layotgan serqirra tub o`zgarishlar bilan uzviy bog`liq. Hozirgi kunda jamiyatimizda sodir bo`layotgan turli o`zgarishlar yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sir ko`rsatmoqda. Jumladan televedinya orqali namoish etilayotgan turli xorijiy filmlar ham yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sir etmay qolmayapti. Bizga ma'lumki, O`zbekiston yoshlar mamlakati hisoblanadi.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan aholining 60% idan ko`prog`ini yoshlar tashkil etadi. Shu boisdan yoshlar masalasi O`zbekistonda dolzarb hisoblanadi.¹

2001-yil yoshlarning yuksak orzu intilishlarini mujassamlashtirib, ularning hayotiy manfaatlari va ehtiyojlarini ifodalash hamda himoyalash maqsadida o`zini-o`zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti – O`zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi. Harakat faoliyatining asosiy maqsadi – yoshlarni birlashtirish, sog`lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o`rin egallashiga ko`maklashish, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o`z aql-zakovoti, kuch-qudratini to`la namoyon etish shart-sharoitini tashkil etish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo`lishidan iboratdir.²

¹ Sotsiologiya ma`ruzalar matni – Toshkent ., 2000y. 97-bet

² O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi IV tom 2002 y. 486-bet

TOLKATT PARSONS VA UNING SOSIOLOGIYADA TUTGAN O'RNI NOMLI REFERATGA TAQRIZ.

G'arb sosiologlari O. Kont, T. Parsons, Ye. Dyurkgeym, Z. Freyd, R. Merton kabi mutaffakkirlar tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, inson tarbiyasining muammolari, tarbiyaga ta'sir yetuvchi ijtimoiy, biologik faktorlarning ta'siriga oid fikrlarni ilgari surganlar.

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va sosial omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilash borasiga munozara ko'p asrlardan beri davom yetib kelmoqda. Ko'p asrlik mazkur munozara zamirida ikki bir-biriga qarama qarshi nuqtai nazar vujudga kelgan. Ulardan biri bixevioristlar odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy-biologik omillar hal qiluvchi rol uynaydi desa, ikkinchi toifa olimlar yesa ijtimoiy voqyealar tarbiyaning muhim omil yekanligini ta'kidlaylilar. Birinchi guruh olimlarining fikricha ya'ni bixeviorizm tarafdolari odam bolasining rivojlanishi tug'ma imkoniyatlarga bog'liq bo'lib, rivojlanish yesa o'sish va tabiiy tug'ma hususiyatlarning mikdoriy o'zgarishlaridan iboratligini ta'kidlashadi. Demak, bolaga ota – ona, avlod-ajdodlaridan tug'ma o'tgan hususiyatlargina rivojlanadi, degan tushuncha kelib chiqadi. Bu nuqtai nazar namoyonlari tarbiyaning rolini cheklab rivojlanishni inkor yetadilar. Bunday ilmiy faraz fanda bixeviorizm yo'nalishi deb ataladi.

T.Parsons yuqorida qayd qilinganidek, sosiologiya sohasida ko'pgina nazariya va konsepsiyalar yaratdi. Shulardan yana biri inson harakati ya'ni hatti harakat bilan bog'liq, (tizim) muayyan tizim bo'lib, uni o'zini-o'zi uyushtiruvchi tizim deb ataydi va uni quyidagi regulletiv xususiyatlarini simvollik mexanizmi mavjudligi (til, qadriyatlar va x.k) normativlik, (ya'ni individual harakatning umum tomondan norma va qadriyatlarga bog'liqligi) va vamotaristik (o'ganadigan muhit sharoitida

ma'lum darajada irrasionallik va mustaqillik shu bilan birga subyektiv ammo uning ma'lum vaziyatga bog'liqligi) Parsons ana shuning asosida abstrakt formallashgan harakat tizimini modelini yaratdi.